XALQ OG‘ZAKI IJODINING BADIIY XUSUSIYATLARINI ANGLASHDA IFODALI O‘QISH VA BADIIY HIKOYA QILISH

Yulduz Nurjanova
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.10026677

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘rta maxsus ta’limlardagi adabiy o‘qish mashg‘ulotiga oid masalalar bo‘yicha so‘z yuritiladi. Xususan, xalq og‘zaki ijodiga oid badiiy asarlarni o‘rganishda ifodali o‘qish va badiiy hikoya qilish yuzasidan atroflicha bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: adabiy o‘qish, ifodali o‘qish, badiiy hikoya qilish, tanlab o‘qish

Xalq og‘zaki ijodi asarlarining mazmunini to‘la o‘rganish, badiiy xususiyatlarini tushunib olish uchun dastavval ularni eshitish, ifodali o‘qish va badiiy hikoya qilish lozim. Ertak va dostonlar qayta hikoyalashning badiiy qayta hikoyalash turiga juda mos keladi. O‘rta maxsus ta’limlardagi adabiy o‘qish mashg‘ulotining eng muhim va mas’uliyatli masalalaridan biri – doston, ertak va qissalardagi ijobiy obrazlarni o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘rgatishdir.

Badiiy hikoya qilish va ifodali o‘qish jarayonida bu qahramonlarning barcha fazilatlari, hatto kiyinish va qurollanishlari, jismoniy tuzilishi, kishilar bilan munosabati, og‘ir ahvolga tushib qolganlarga ko‘maklashuvi, mardligi, tantiligi, do‘stligi, olijanobligi kabi ajoyib xususiyatlariga o‘quvchilar e’tibori jalb qilinadi. O‘quvchilarning har narsani bilishga qiziqish, ayniqsa, fantastik asarlar va ulardagi mubolag‘alarga qiziqishi tabiiy bir holdir.

Adabiyot darsining, birinchi galda, shu fandan mashg‘ulot olib boradigan o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarning o‘rganilayotgan asarlar vositasida estetik zavqini oshira borish bilan birga, ularning fantaziyasini o‘stirish va boyitishdan iborat. Chunki yoshlarning fantaziyasini tarbiyalash ularning kelajakda real kashfiyotlar yaratish qobiliyatini tarbiyalaydi, orzu va umidlarini ro‘yobga chiqarish uchun izlanish va qidirishlarga undaydi. Lekin o‘quvchilarni dastavval asarning o‘ziga qiziqtira bilish lozim. Buning uchun o‘qituvchi yaxshi aytuvchi va ta’sirli qilib o‘qib beruvchi bo‘lishi kerak.

O‘quvchilarni qiziqtiradigan narsalardan biri – og‘zaki ijod namunalarida – qofiyali proza – sajlarning uchrab turishidir. Saj ertak va dostonlarning an’anaviy muqaddimasida fikrni ta’kidlash va to‘ldirish uchun qo‘llanadigan qaytariqlarda ko‘proq uchraydi.

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi turlaridan biri hisoblangan ertaklar fantaziya va mubolag‘aning kuchli bo‘lishidan tashqari, deyarli umidvorlik va maqsadga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan bo‘ladi. Ertaklar fikr

bayon qilish jihatdan asosan ikki xil, ya'ni maqsadni ochiq ifodalagan ertaklar va asosiy fikr, aytilmoqchi bo'lgan maqsad yashirin shaklda, allegorik bayon qilingan ertaklar bo'ladi. Ertaklarning ikkinchi xili masal janriga ko'p jihatdan yaqin turadi.

O'quvchilarni ertak bilan tanishtirishda ularning e'tiborini ertakning boshlanishi va tugallanishiga, ertak oxiridagi "murod-maqsadiga yetdi" kabi jumlalarga jalb etish zarur. Ertakning mazmunini so'zlatishda o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan savollar ham ahamiyatlidir. Savollar shunday tuzilishi kerakki, u savollarga topilgan javoblar ertak syujetining umumiy yo'nalishini tashkil etadigan bo'lsin va qahramonning xarakterini ochishga yordam bersin. Aslida, ertaklarning, umuman, folklor asarlarida qo'llanilayotgan til birliklarining ifoda xususiyatiga e'tibor berish lozim. Bunda o'qituvchi tomonidan tuziladigan yoki taqdim etiladigan savol va topshiriqlarning o'rni nihoyatda muhimdir.

Guruhda o'rganiladigan ertaklardan tashqari, o'qituvchi o'zbek ertaklarida xilma-xil shaklda ishlatiladigan an'anaviy muqaddima namunalaridan bir-ikkitasini o'quvchilarga aytib berishi mumkin. Masalan, "Bo'ri bilan tulki" ertagining muqaddimasi shunday boshlanadi: "**Ertagi yo ertagi, echkilarning bo'rtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, olaqarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning yeri bor,etti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor...**" Ertaklarning an'anaviy muqaddimasi o'quvchilarning e'tiborini jalb etadi va asar mazmuniga qiziqishni kuchaytiradi.

Boshlang'ich sinfdan keyin "Uch og'a-ini botirlar", "Susambil" ertaklari o'tiladi. "Uch og'a-ini botirlar" ertagining asosiy xulosasi voqea boshlanmasdanoq bayon qilinadi. Baquvvat, yarog' ishlatishga usta va botir bo'lib yetishgan uch yigitga otasi shunday nasihat qiladi: To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang – uyatga qolmaysiz. Dangasa bo'lmang – baxtsiz bo'lmaysiz. Bu botirlarning otasi – mehnatkash xalq orasidan chiqqan, boy turmush tajribasiga ega bo'lgan bir chol... Chol o'z farzandlarini xalq manfaatini ko'zlovchi ajoyib odamlar qilib tarbiyalaydi. Shuning uchun ham ular hatto podsho huzurida ham to'g'ri so'zlaydilar. Ular rostgo'ylik, mehnatsevarlik va xalqparvarlik tufayli murod-maqsadga yetadilar, baxtli bo'ladilar.

"Uch og'a-ini botirlar" ertagini 1-bosqich litsey o'quvchilariga quyidagicha qayta o'qitish mumkin (aslida ertaklar yosh tanlamaydi. Turli yoshda turlicha haqiqatlar anglanadi): Litseylarning xorijiy yo'nalishlarida ertak janrining

o‘qitilishiga 3 soat ajratilgan (Xalq ertaklarining janr xususiyatlari va mazmuniga ko‘ra turlari.) 2-soat nazariy, 1 soat mustaqil ta’limga ajratilgan.

1. Ertak matni o‘quvchilarga to‘la yetib borishi uchun o‘qituvchi uni badiiy hikoya qilib berishi kerak.

Ertak mazmuni so‘zlab berilgach, o‘quvchilar matnni o‘qishga kirishadilar. O‘qituvchi esa shu o‘qish davomida ertakdagi oq-qorani tanigan, to‘ng‘ich, qosh qoraygan, manzil, chovut, tasma, darcha, o‘rda, ark so‘zlari va “podsho degani it go‘shtidan ham qaytmaydi”, “podsholik – qonxo‘rlik demakdir” degan so‘z va iboralarning ma’nosini tushuntirib beradi. Bu so‘z va iboralarni doskaga yozib tushuntirish ma’qul.

Ertakni o‘qib chiqqandan keyin, uning g‘oyaviy mazmuni va qahramonlari haqida suhbat o‘tkaziladi. Suhbatdan kuzatiladigan asosiy maqsad donishmand otaning nasihati nimadan iborat ekanligini, bu nasihatga amal qilgan botirlarning qanday fazilatlarga ega ekanligini, shu fazilatlar tufayli ularning qanday hayot kechirganligini aniqlashdan iborat. Bu suhbatda ijobiy qahramonlar – ota va bolalar bilan podsho va uning amaldorlari, ayniqsa yovuz niyatli vazir obrazlarini taqqoslash orqali mehnatsyevar va rostgo‘y botirlarning oliyjanob fazilatlariga havas, zolimlarga nafrat qo‘zg‘atiladi.

Bu suhbatni darslikdagi savol va topshiriqlar asosida o‘tkazish ma’qul. Chunki kitobda ertakning mazmuni va maqsadini aniqlashga yordam qiladigan metodik ko‘rsatmalar berilgan. Suhbat natijasida o‘quvchilar, adolat hamma vaqt zulmni yengadi, degan xulosaga kelishlari lozim. Shu suhbatda ertakning badiiy xususiyatlari – tasvirlash va ifodalash vositalariga ham to‘xtalib o‘tiladi.

4. O‘qituvchining, nima uchun “Uch og‘a-ini botirlar” asarini ertak deb aytamiz, degan savoliga o‘quvchilar javob tayyorlaydilar. Ular ertakning muqaddimasi va xotimasi qismidagi jumlalarning xususiyati va mazmunini tushuntirib beradilar.

5. Dars mashg‘ulotining yakunlovchi qismida o‘quvchilarga ertakning mazmuni so‘zlatiladi. Bu so‘zlashda “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan”, “murod-maqsadiga yetibdi” kabi an’anaviy qismlar, albatta, aytilishi kerakligi uqtirib o‘tiladi.

Xalq og‘zaki ijodining yirik namunasi – dostonlarning ham uzoq tarixi bor. Doston – o‘zbek xalq og‘zaki poeziyasining epik turi bo‘lib, unda ko‘pincha xalqning uzoq o‘tmishi, jangovar xarakatlari, vatanparvarligi va mardligi, sadoqati va vafodorligi madh etiladi. Xalq qahramonlik eposi o‘zining tuzilishi va xarakteri jihatidan ertaklarga nisbatan farq qiladi. Dostonlarda ma’lum tarixiy davr voqealari izchil va murakkab bayon qilinadi.

O‘zbek xalq dostonlarining deyarli ko‘pchiligi proza va poeziyadan tashkil topgan. Dostonda qahramonlarning sarguzashtlari she’rda, baxshining ular haqidagi naqllari esa prozada ifodalanadi. Ta’limiy muammo shundaki, bugunga avlod doston aytmaydi, dostonlarning zarur qisimlarini yod bilmaydi, oilalarda xalq og‘zaki ijodi janrlari, xususan, dostonlar xirgoyi qilinmaydi.

O‘zbek xalq dostonlari mavzu va mazmun jihatidan xilma-xildir. Qahramonlik, ishqiy-qahramonlik, ishqiy-sarguzasht va tarixiy dostonlar mavjuddir. O‘rta maxsus ta’lim davrida o‘quvchilar “Ravshan”, “Kuntug‘mish”, “Alpomish”, “Rustamxon”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonlari bilan tanishadilar.

“Alpomish” qahramonlik dostoni bo‘lib, o‘zbek xalq dostonlarining eng qadimiy va eng go‘zal namunalaridandir. Doston haqida ma’lumot berishda dostonchilar, ularning hayot yo‘li masalalariga ham to‘xtalib o‘tish zarur. Dostonchilik o‘zbek xalq baxshilarining ko‘pchiligiga ota meros kasbdir. Baxshilarning yig‘ilishib doston aytishishi, musobaqalashuv va qancha doston bilganlikni namoyish qilish ham alohida tantana – bayram hisoblangan.

“Alpomish” dostoni haqida ma’lumot berishda boshqa bir qancha baxshilar ham bu dostonni aytib yurganligi, lekin Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining og‘zidan yozib olingan bu dostonning “Alpomish”lardan eng mukammali ekanligini ta’kidlab o‘tishi lozim.

Doston hajm jihatidan katta va kompozitsiyasi murakkab bo‘lgani uchun sinfda ifodali o‘qish va obrazlarni tahlil qilishga kirishishdan oldin bir qancha ishlar qilinadi. Avvalo, o‘qituvchi doston haqida, dostonchilar haqida umumiy ma’lumot bergach, “Alpomish”ning mazmuni va obrazlar sistemasi masalasiga to‘xtalib o‘tadi. Notanish so‘zlar lug‘ati yozdiriladi va keyin birinchi parchaning ma’lum bir qismini o‘qituvchining o‘zi ifodali o‘qib beradi.

So‘ngra o‘quvchilar dostonning umumiy mazmuni bilan tanishib chiqqach, asar obrazlari guruhlarga ajratilib, ularning xarakterli xususiyatlari aniqlanadi. Alpomish, Barchin, Qaldirgoch, Qorajon kabi ijobiy qahramonlar, Ko‘kaldosh, Surxayl kampir, Toychaxon kabi salbiy obrazlar guruhlarga ajratilgach, o‘quvchilar e’tibori Hakimbekning polvonlik xususiyatlariga jalb etiladi. Bu suhbatda Alpomish obrazining xarakteristikasi tuziladi. Adabiyot o‘qitish metodikasida obrazlarga tavsif berishga mo‘tadil yondashish tamoyili ilgari surilgan bo‘lsa-da bizningcha, folklor janrlarini o‘qitishda, ertakmi dostonmi qahramonlarni ma’lum ma’noda salbiy va ijobiyga ajratish kerak. Zero, xalq og‘zaki ijodi, masalan ertaklar tarbiyaviy, namunaviy xarakterga ega.

Q.Husanboyeva ta’kidlaganidek, “Adabiyot o‘qitish metodikasi ilmida adabiy qahramonning shaxs sifatidagi o‘ziga xos ruhiy olami va axloqiy

sifatlarini anglash o‘quvchi oldiga qo‘yilgan muhim didaktik talablardan hisoblanadi... Darsda asar ustida ishlash mobaynida adabiy qahramon shaxsi va hayoti tahlili asosida o‘quvchining o‘zi ham hayotga faol kirib boradi. O‘zgalarni o‘rganish orqali o‘zi shaxs sifatida shakllanadi. O‘quvchining asar qahramonlari munosabatiga qarab uning shaxsini belgilash mumkinligi ham haqiqatdan yiroq emas”[1] Shu xarakteristikada o‘quvchilarning e’tibori qahramonning portretiga tortiladi. Alpomish portreti ta’riflangan quyidagi parcha qayta o‘qitiladi:

Ostingda bedoving xalloslar qushday,
Achchig‘ing chillali muzlagan qishday,
Norkalla kelgansan, cho‘lda qush-mushday,
Norkalla polvonim, qaydan bo‘lasan?
Qirg‘iy degan qush o‘tirar qiyada,
Jasading bor Rustamdan ham ziyoda,
G‘ayratingdan shohlar yurar piyoda.
Xabar ber, bekvachcha, qayda borasan?
Jamoling o‘xshaydi osmonda oyga,
Qoshingni o‘xshatdim egilgan yoyga,
Jasading o‘xshaydi bo‘z qarchig‘ayga,
Yonboshlab yotishing ming qo‘yli boyga,
Boyvachcha sifatlim, qaydan bulasan?..

Chilbir cho‘lidagi Murodtepaning eng yuqorisida mag‘rur yonboshlab yotgan Alpomish bilan Qorajonning uchrashuvi va savol-javoblar qahramonning portreti chizilgan o‘rinlardir. Alpomishning Qorajonga bergan javobida bu portret to‘ldiriladi, qahramonning xarakteri ham ochiladi:

Ko‘kqamish ko‘lidan suqsur uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo‘laman.
Bog‘larim zumraddan, changalim po‘lat,
Qo‘ng‘irotdan qo‘yilgan shunqor bo‘laman...

Doston qahramoni Alpomish tilidan aytilgan “...lochin bo‘laman, bog‘larim zumraddan, changalim po‘lat... shunqor bo‘laman” iboralarida uning mardligi, qo‘rqmasligi, har qanday qiyinchilikni yengishga qodir ekanligi, o‘z maqsadi yo‘lida juda qat’iyatli yigit ekanligi ma’lum bo‘ladi. O‘quvchilar suhbat va matndan ayrim o‘rinlarni tanlab o‘qish orqali qahramon haqidagi tushunchalarini boyitadilar va mustahkamlaydilar.

[1] Ҳусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 34-б.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Adabiyot o‘qitish metodikasi / o‘quv qo‘llanma: Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova –Toshkent 2018-yil.
2. Туйчиева М.У. 5–7-синфлар адабиёт дарсларида ўзлаштириладиган ўқув материалларини такомиллаштириш тизими. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019
3. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996 йил
4. Ҳусанбоева Қ. “Гулнор опа” муаммоси ва унинг ечими. – Т.: “Тил ва адабиёт таълими”, 2004. 6-¬сон
5. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009